

Oriental Journal of Education



CRITERIA FOR SELECTING LITERARY TEXTS FOR PRESCHOOL-AGED CHILDREN

Rano Haydarovna Davlatova

Doctor of Philological Sciences (DSc)

Associate Professor, Department of Preschool Education

Navoi State University

Navoi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: preschool age, children's literature, pedagogical criteria, aesthetic education, age appropriateness, speech development, digital generation, literary text, moral education.

Received: 04.12.25

Accepted: 05.12.25

Published: 06.12.25

Abstract: This article examines the pedagogical, psychological, and aesthetic criteria for selecting literary texts for preschool children. The study analyzes the role of fiction in the moral, linguistic, and aesthetic development of a child's personality. Based on the views of V.A. Sukhomlinsky, L.S. Vygotsky, O.S. Ushakova, L.M. Gurovich, and A.A. Muratova, the paper defines key selection criteria such as age-appropriateness, educational value, narrative simplicity, and linguistic expressiveness. Recommendations on optimal text length (word count and reading duration) for different age groups are provided. The paper also discusses current challenges related to digitalization, mass culture, and the preservation of national literary values in early childhood education.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN BADIY MATN TANLASH MEZONLARI

Ra'no Haydarovna Davlatova

Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti

f.f.d (DSc)

Navoiy davlat universiteti

Navoiy, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, badiiy adabiyot, pedagogik mezon, estetik tarbiya, yoshga moslik, nutq rivoji, raqamli avlod, badiiy matn, tarbiyaviy ahamiyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun badiiy matn tanlashning pedagogik, psixologik va estetik mezonlari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda badiiy matn bolaning shaxsiy, axloqiy, nutqiy va estetik rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Mualliflar fikriga tayangan holda (V.A.

Suxomlinskiy, L.S. Vygotskiy, O.S. Ushakova, L.M. Gurovich, A.A. Muratova va boshqalar) asar tanlashning yoshga mosligi, tarbiyaviy yoʻnalganligi, syujet soddaligi, tildagi ifodaviylik kabi mezonlar asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada bolalarning yosh bosqichlariga koʻra matn hajmi (soʻzlar soni, oʻqish davomiyligi) boʻyicha tavsiyalar keltirilgan. Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar taʼsiri, ommaviy madaniyat mahsulotlari va milliy adabiyot oʻrtasidagi muvozanat masalalari ham tahlil qilingan.

КРИТЕРИИ ОТБОРА ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ ДЛЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Раъно Хайдаровна Давлатова

Доктор филологических наук (DSc)

Доцент кафедры дошкольного образования

Навоийский государственный университет

Навоий, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: дошкольный возраст, художественная литература, педагогические критерии, эстетическое воспитание, возрастные особенности, развитие речи, цифровое поколение, художественный текст, воспитательная функция.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические, психологические и эстетические критерии отбора художественных текстов для детей дошкольного возраста. Автор анализирует роль художественной литературы в нравственном, речевом и эстетическом развитии личности ребёнка. На основе трудов В.А. Сухомлинского, Л.С. Выготского, О.С. Ушаковой, Л.М. Гурович, А.А. Муратовой обоснованы критерии отбора произведений: соответствие возрастным особенностям, воспитательная направленность, простота сюжета и выразительность языка. Представлены рекомендации по объёму текста (количеству слов и продолжительности чтения) в зависимости от возраста. В современном контексте анализируются проблемы цифровизации, массовой культуры и сохранения национальных литературных ценностей.

Kirish. Maktabgacha yosh - inson shaxsining shakllanishida eng mas'uliyatli, poydevor davrlardan biridir. Bu davrda bola nafaqat jismonan, balki ruhiy, hissiy va aqliy jihatdan ham jadal rivojlanadi. Aynan shu bosqichda bolaning nutq madaniyati, estetik didi, tasavvuri, fikrlash qobiliyati

va axloqiy qadriyatlari shakllanadi. Shuning uchun bu yoshda bolani badiiy adabiyot bilan tanishtirish, unga go‘zal so‘z, obraz va g‘oya orqali ta‘sir etish nihoyatda muhim pedagogik vazifa hisoblanadi .

Badiiy adabiyot bolalar tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan vosita sifatida shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. U bolaning dunyoqarashini kengaytiradi, hayot haqidagi dastlabki tushunchalarini boyitadi, atrofdagi voqealarga nisbatan hissiy munosabatini shakllantiradi. Adabiyot orqali bola ezgulik va yovuzlik, do‘stlik va sadoqat, mehnat va halollik, adolat va mehr-shafqat kabi tushunchalarni badiiy obrazlar vositasida anglay boshlaydi. Shu bois badiiy so‘z bolaning axloqiy-estetik tarbiyasida eng kuchli psixologik ta‘sir vositasi sifatida maydonga chiqadi .

Bolalar adabiyotining o‘ziga xos jihati shundaki, u bola tafakkurining tabiiy rivojlanish bosqichlariga mos tarzda tuziladi. Har bir so‘z, tasvir, voqea yoki obraz bolaning his-tuyg‘usini uyg‘otadi, unga estetik zavq bag‘ishlaydi va o‘z fikrini mustaqil ifoda etishga o‘rgatadi. Shu sababli, pedagog yoki tarbiyachi tanlaydigan badiiy matnlar nafaqat g‘oyaviy jihatdan to‘g‘ri, balki bola psixologiyasiga, yosh xususiyatlariga, nutqiy rivojlanish darajasiga mos bo‘lishi zarur .

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim tizimida badiiy adabiyotga bo‘lgan yondashuv yanada yangilanib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari bolalarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishiga ta‘sir ko‘rsatmoqda: raqamli vositalar bolalar hayotiga chuqur kirib kelar ekan, ularning kitob bilan bevosita muloqoti qisqarib bormoqda. Shu sababli, tarbiyachilar va ota-onalar zimmasiga badiiy adabiyotga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, uni bolaning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylantirish mas‘uliyati yuklanadi .

Badiiy asarni to‘g‘ri tanlash jarayoni tasodifiy emas, balki ilmiy-metodik mezonlarga asoslangan bo‘lishi kerak. Chunki noto‘g‘ri tanlangan matn bolaning idrokiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi, uning nutqiy rivojlanishini sekinlashtirishi, estetik hislarini shakllantirishda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Aksincha, mazmuni, tili, g‘oyasi, kompozitsiyasi jihatidan puxta tanlangan asar bolaning ichki dunyosiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, unda mustaqil fikrlash, estetik did va ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi . V.A. Suxomlinskiy “Kitob o‘qish - bolaga yurakdan yo‘l topuvchi eng to‘g‘ri yo‘ldir”[10] degan fikri hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Badiiy matn tanlash masalasi pedagogika, psixologiya va lingvodidaktika fanlarining tutashgan nuqtasida joylashgan murakkab nazariy yo‘nalishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning pedagogik asoslari tarbiya, ta‘lim va rivojlantirish funksiyalarining uyg‘unligiga tayanadi. O.S. Ushakovning fikricha, badiiy adabiyot bolaning nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish va mustaqil fikrlashni shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi[12]. N.G. Panteleeva agar bola erta yoshdan kitob bilan tanishtirilmasa, u holda u “so‘zning estetik kuchini his qila olmaydi, bu esa uning axloqiy va nutqiy rivojlanishida bo‘shliq keltirib chiqaradi”, - deya ta‘kidlaydi[9].

Psixologik yondashuvda asosan bolaning yosh va individual xususiyatlari e'tiborga olinadi. L.M. Gurovich bolalarning adabiyot idrokini yosh bosqichlariga ko'ra tahlil qilib, quyidagicha tasniflaydi [5]:

- Kichik yoshdagi bolalar (3-4 yosh) - syujetni yuzaki qabul qiladi, lekin obrazlarni eslab qoladi;
- O'rta yosh (4-5 yosh) - sabab-oqibat aloqalarini tushuna boshlaydi;
- Katta yosh (5-6 yosh) - qahramonlarning xatti-harakat motivlarini anglab, ularni baholay oladi.

Bu nazariy tasnif badiiy matn tanlashda yoshga moslik mezonining ilmiy asosini tashkil etadi.

Shuningdek, badiiy asar - bu estetik tarbiya vositasi hamdir. S.Ya. Marshak "haqiqiy bolalar adabiyoti muallifning ezgulik tarafdori sifatidagi pozitsiyasini aks ettiradi" deb yozgan [6]. Estetik jihatdan yuksak asarlar bolada go'zallikni his qilish, tasviriy tafakkur, nutqiy ohangni sezish, so'z musiqasidan zavq olish qobiliyatini shakllantiradi.

Demak, badiiy matn tanlash jarayoni shunchaki did asosida emas, balki psixologik, estetik va pedagogik qonuniyatlarga tayangan holda amalga oshirilishi kerak. Bu yondashuv bolani shaxs sifatida har tomonlama rivojlantirishga, unda so'zga, go'zallikka va kitobga muhabbat uyg'otishga xizmat qiladi. Tanlov jarayonida nafaqat asarning g'oyaviy yo'nalishi, balki uning til, shakl, tuzilma, syujet, hissiy ta'sir va yoshga moslik jihatlari ham chuqur tahlil qilinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga badiiy asar tanlashdagi pedagogik mezonlar bolalarning yosh xususiyatlarini, tarbiyaviy ehtiyojlarini va shaxsiy rivojlanish bosqichlarini hisobga oladi. Bunda asar bolaning axloqiy, aqliy va nutqiy rivojlanishiga xizmat qilishi zarur. Ilmiy manbalarda bu mezonlar quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. Tarbiyaviy yo'naltirilganlik. Badiiy asar bolaning axloqiy-ruhiy dunyosiga ta'sir etuvchi, ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalovchi vosita bo'lishi shart. Asar bolani ezgulik, adolat, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va rahm-shafqat kabi qadriyatlarga yo'naltirishi lozim.

2. Yosh va psixologik moslik. Har bir yosh bosqichida bola adabiy matnni turlicha idrok etadi. Shu sababli kichik guruhlar uchun takroriy va ritmik she'rlar, xalq ertaklari, quvnoq hikoyalar; katta guruhlar uchun esa soddaligi saqlangan holda chuqurroq mazmunli hikoyalar, axloqiy-psixologik ertaklar tavsiya etiladi.

3. Didaktik imkoniyat. Badiiy matn bola tafakkurini, nutqini, muloqot qobiliyatini rivojlantiruvchi, yangi so'z va tushunchalarni o'rgatuvchi vosita bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, tanlangan asarda nutq o'stirishga xizmat qiluvchi obrazli ifodalar, takroriy tuzilmalar va so'z boyligini kengaytiruvchi tildagi namunalarning mavjudligi muhimdir.

4. Syujet va kompozitsion soddalik. Maktabgacha yoshdagi bola murakkab voqealar zanjirini to'liq idrok eta olmaydi. Shu bois kompozitsion jihatdan soddaligi, bir yo'nalishli syujeti bo'lgan asarlar afzal sanaladi.

Murakkab voqealar, ortiqcha tafsilotlar, ko‘p personajli hikoyalar bolaning e‘tiborini chalg‘itadi, shu sababli tanlovda qisqa, obrazli va hissiy jihatdan boy matnlar ustuvor bo‘ladi.

5. Til va ifoda aniqligi. Asarning tili grammatik jihatdan toza, talaffuzi aniq, ifodali va musiqiy bo‘lishi zarur. Tilning bunday sifati nafaqat nutq madaniyatini shakllantiradi, balki estetik didni ham o‘stiradi.

Estetik mezonlar asarning badiiylik darajasi, obrazlar tizimi, hissiy ta‘sir kuchi va estetik tarbiyadagi roli bilan belgilanadi. Ular asarning pedagogik samaradorligini oshiruvchi ichki san‘at omillarini ifodalaydi.

1. Badiiylik darajasi. Asarda mazmun va shakl uyg‘unligi, g‘oya va ifoda birligi saqlanishi kerak. Badiiylik darajasi yuqori asarlar bolaning estetik sezgirligini oshiradi, so‘zning go‘zalligini his qilish qobiliyatini shakllantiradi.

2. Obrazlilik va hissiy ifoda. Bola adabiy matnni avvalo hissiyot orqali qabul qiladi. Shuning uchun tanlangan asarda yorqin obrazlar, emotsional ta‘sirga ega voqealar, samimiy ohang bo‘lishi zarur.

3. Go‘zallik va axloq uyg‘unligi. Estetik tarbiyaning asosiy tamoyili — go‘zallik va axloqning birligidir. Shu bois tanlangan matn bolada nafaqat estetik zavq uyg‘otishi, balki ijobiy hissiy tajriba orqali axloqiy tushunchalarni shakllantirishi lozim.

4. Illyustrativ uyg‘unlik. Estetik mezonlarning yana bir muhim jihati — matn va tasvirning uyg‘unligidir. Ko‘rgazmalilik bolalar adabiyotining ajralmas tarkibiy qismidir. Rasm va rang vositasida asarning mazmuni yanada to‘liq idrok etiladi. Shu sababli illyustratsiyalar mazmun bilan bevosita bog‘liq, rang jihatdan uyg‘un va estetik jihatdan sokin bo‘lishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar (3 dan 7 yoshgacha) o‘zlarining psixologik, nutqiy va hissiy rivojlanish darajalari bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Shu sababli badiiy asar tanlashda yosh bosqichlariga differensial yondashuv zarurdir. Har bir bosqich o‘ziga xos idrok shakli, tafakkur darajasi, his-tuyg‘u dinamikasi va nutq rivoji bilan tavsiflanadi. Ushbu yondashuv psixologlar L.S. Vygotskiy, S.L. Rubinshteyn, B.M. Teplov, L.M. Gurovichlarning ilmiy qarashlariga, shuningdek, zamonaviy pedagoglar O.S. Ushakova, V.V. Gerbova, A.A. Muratova, M.V. Maslovalarning metodik ishlanmalariga tayangan holda shakllanadi.

Ma‘lumki, kichik maktabgacha yosh (3–4 yosh)da bola voqealarni to‘liq tahlil qila olmaydi, ammo u ritmik, takroriy, ohangdor nutqni oson qabul qiladi. Bolaning idroki emotsional xarakterga ega: u so‘zning ma‘nosidan ko‘ra uning ohangiga, tovushiga, takroriga e‘tibor beradi. Eshitish, tasviriy va hissiy xotira faol rivojlanadi. L.M. Gurovich ta‘kidlashicha, bu yoshda bola asarni “hissiy refleksiya” orqali idrok etadi, ya‘ni “so‘z obrazini eshitadi, lekin ma‘nosini hali to‘liq anglamaydi” [5]. Shu sababli bolaga sodda, ritmik va takroriy badiiy material tanlash muhimdir. Shunga ko‘ra xalq

ogʻzaki ijodi: alla, topishmoq, tez aytish, ertaklar, qisqa sheʼrlar, sodda syujetli ertaklarni (“Boʻgʻirsoq”, “Sholgʻom” va bosh.) tavsiya etish mumkin.

Oʻrta maktabgacha yoshda (4–5 yosh) bola sabab-natija aloqalarini tushuna boshlaydi, voqealar ketma-ketligini idrok etadi va personajlarga baho bera oladi. Shuningdek, u soʻz oʻyini, ritmik tildan zavqlana boshlaydi. Shunga koʻra asar tanlashda tabiiy, bola hayotiga yaqin syujetli, aniq ijobiy va salbiy obrazlar mavjud, bolaning kundalik hayot tajribasiga mos mavzular, ritmik, ohangdor, lekin mazmunli til, axloqiy gʻoya (doʻstlik, yordam, halollik, mehr) mezonlariga eʼtibor qaratish muhim. Chunki bu yoshda oʻqilgan asarlar orqali bola “yaxshi” va “yomon” tushunchalarini shakllantira boshlaydi.

Katta maktabgacha yoshda (5–6 yosh) bolalarda murakkab badiiy shakllarni idrok etish qobiliyati shakllanadi. Ular obrazlarni tahlil qiladi, qahramonlarning motivlarini anglaydi va ularning harakatlariga baho beradi. Shu bilan birga, fantaziya va estetik sezgi yuqori darajada rivojlanadi.

L.S. Vygotskiy bu bosqichni “mazmunni ichki tushunish davri” deb ataydi [3] — bola matnni soʻz orqali emas, obraz orqali his qiladi. Bunda asarda bitta asosiy gʻoya va mantiqiy syujet chizigʻining mavjudligi, hissiy chuqurlik va badiiy obrazlili, tilning boyligi, metafora va epitetlardan foydalanish, qahramonlarning axloqiy pozitsiyasini tahlil qilish imkoniyati, matn va rasm uygʻunligi, estetik zavq uygʻotish xususiyatlari inobatga olinishi kerak.

Maktabga tayyorlov yoshidagi (6–7 yosh) bola tafakkur mustaqilligi, nutq ravonligi, tahliliy fikrlash rivojlanadi. U gʻoyani tushunish, muallif pozitsiyasini sezish, badiiy tildan estetik zavq olish bosqichiga kiradi.

V.V. Gerbova taʼkidlashicha, bu yoshda asar “koʻp qatlamli maʼnoda” idrok etiladi - bola voqeani tushunadi, qahramonni baholaydi va oʻz hissiy munosabatini bildiradi[4]. Bu yoshda bolaga fikr yuritishga undovchi asarlar, muallifning pozitsiyasi aniq ifodalangan, axloqiy-psixologik muammolarni tahlil qilish imkonini beruvchi, bolaning oʻz hayoti bilan bogʻlay oladigan voqealar mavjudligi, estetik zavq va badiiy tafakkurni rivojlantiruvchi ifodaviy til muhim oʻrin tutadi.

Shuningdek, badiiy matnning hajmi ham muhim boʻlib, bolaning diqqat barqarorligi, eshituv xotirasi, nutq faoliyati va hissiy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Toʻgʻri hajmdagi matn tanlansa, bola uchun idrok etish oson, his etish yoqimli va eslab qolish samarali boʻladi. Bolaning yoshiga qarab badiiy matn hajmi, yaʼni soʻzlar miqdori va davomiyligini quyidagicha belgilash mumkin:

Yosh guruhi	O'qish davomiyligi	Matn hajmi (so'zlar soni)	Gap uzunligi (o'rtacha)	Matn xususiyatlari va tavsiyalar
Kichik guruh (3–4 yosh)	3–5 daqiqa	80–150 so'z	5–6 so'zli gaplar	Qisqa, takroriy, ritmik va hissiy matnlar (alla, topishmoq, qisqa she'r). Rasmga boy bo'lishi zarur.
O'rta guruh (4–5 yosh)	5–7 daqiqa	150–250 so'z	6–8 so'zli gaplar	Sodda syujetli, bir voqea asosidagi hikoya yoki ertak. So'z boyligini kengaytiruvchi matnlar.
Katta guruh (5–6 yosh)	7–10 daqiqa	250–400 so'z	8–10 so'zli gaplar	Bir necha obrazli voqeani o'z ichiga olgan matnlar. Hissiy rang-baranglik va axloqiy mazmun muhim.
Tayyorlov guruhi (6–7 yosh)	10–12 daqiqa	400–600 so'z	10–12 so'zli gaplar	To'liq syujetli hikoya yoki ertak. Qahramonlararo muloqot, sabab-oqibat bog'liqligi, ifodali so'zlar mavjud bo'lishi kerak.

Badiiy matn maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy dunyosiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi vosita hisoblanadi. Uning kuchi nafaqat ma'noda, balki so'z ohangi, obraz, ritm, voqea va qahramonlarning his-tuyg'ulari orqali yuzaga chiqadi. Badiiy so'z bolaning yuragiga kiradi, unda his, hayrat, rahm-shafqat, quvonch va estetik zavq uyg'otadi. Shu sababli badiiy matnning ta'sirchanligi va tarbiyaviy samarasi pedagogika va psixologiya nazariyalarida alohida o'rganilgan. Bola asar orqali insoniy munosabatlarni o'rganadi, jamiyatda yashash me'yorlarini bilib boradi. Qahramonlar o'rtasidagi dialoglar, ijtimoiy holatlar, mehr, kechirim, yordam, adolat kabi mavzular bola ongida ijtimoiy xulq normalarini shakllantiradi.

Xulosa. Bugungi bolalar “raqamli avlod” sifatida shakllanmoqda. Ular erta yoshdan boshlab smartfon, planshet, televizor va internet orqali vizual axborot oladi. Shu sababli kitob bilan hissiy muloqot an'anaviy shaklda emas, balki ekran orqali vositali idrok sifatida yuzaga chiqmoqda. Bozorda ommalashgan, ammo badiiy jihatdan yuzaki asarlar ko'paymoqda. Ular bolada o'qishga emas, iste'molga, shov-shuvga asoslangan estetik qarashni shakllantiradi. Natijada badiiy adabiyotning tarbiyaviy vazifasi so'nadi. Shu sababli tarbiyachi va ota-onalar asarning manbai, muallifi, tili va g'oyaviy yo'nalishini diqqat bilan baholashlari kerak. Har qanday “bolalar uchun” deb nomlangan narsa ta'limiy va axloqiy qiymatga ega emas. Shuning uchun tanlovda mumtoz, milliy va badiiy jihatdan mukammal manbalarga tayanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Toshkent: MTTV nashriyoti, 2021.

2. То‘xtaboyev X., Sa‘dulla Sh. va G‘.G‘ulomning bolalar uchun yozgan asarlari (ertak va hikoyalar to‘plamlari). Toshkent: Yosh Gvardiya nashriyoti.

3. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Педагогика-Пресс, 1999. – 96 с.

4. Гербова В. В. Развитие речи детей дошкольного возраста в процессе чтения художественных произведений. Москва: Сфера, 2015. – 160 с.

5. Гурович Л. М. Методика развития речи детей дошкольного возраста. Москва: Просвещение, 2010. – 214 с.

6. Маршак С. Я. О детской литературе и поэзии. Москва: Детская литература, 1979. – 176 с.

7. Маслова М. В. Особенности приобщения ребенка дошкольного возраста к чтению художественной литературы в современных условиях. Вестник педагогики и психологии образования, 2016. №4, 23–29.

8. Муратова А. А. Формирование интереса к чтению художественной литературы у дошкольников в условиях информационного общества. Психолого-педагогические исследования, 2017. №3, 44–50.

9. Пантелеева Н. Г. Значение художественной литературы в речевом развитии у детей младшего дошкольного возраста. Санкт-Петербург, 2012. – 136 с.

10. Сухомлинский В. А. Сердце отдаю детям. Москва: Педагогика, 1981. – 384 с.

11. Тураева М. Х. Bolalar adabiyotining estetik tarbiyadagi o‘rni. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. – 88 b.

12. Ушакова О. С. Методика ознакомления детей дошкольного возраста с художественной литературой. Москва: Академия, 2008. – 192 с.